

2 mart - O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lgan kuni

Bu yil O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ga a'zo bo'lganiga 29 yil to'ldi.

Ushbu sana arafasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan birgalikda O'zbekistonning BMTga a'ziligining 29 yilligiga bag'ishlangan "O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida davra suhbatini tashkil etdi..

2021 yil 1 mart kuni Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitet binosida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, turli vazirlik va idoralar, BMT va uning ixtisoslashtirilgan agentliklari vakillari, ilmiy doiralar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Davra suhbatining maqsadi - O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish va kelgusi harakatlar uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Davra suhbatida O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlikning asosiy maqsadi butun dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlararo birdamlikni mustahkamlash, xalqaro iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy aloqalarni rivojlantirish, inson huquqlari va erkinligini qo'llab-quvvatlashdan iborat ekanligi ta'kidlandi.

Davra suhbatini ishtirokchilari O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlikning asosiy bosqichlari va ustuvor yo'nalishlari, O'zbekistonning tashabbuslari va ularni BMT doirasida amalga oshirish, O'zbekistonning BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashiga a'ziligining asosiy vazifalari, shuningdek, O'zbekistonning BMTning ixtisoslashgan agentliklari bilan hamkorligining hozirgi holatini muhokama qildilar.

YuNESKONing O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari va YuNESKONing O'zbekistondagi Vakili janob Yan Xladik anjuman ishtirokchilariga yuborgan videomurojaatida 1996 yilda Toshkentda YuNESKO vakolatxonasi tashkil etilganidan buyon YuNESKO va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning dasturiy sohasi kengayib, hozirgi kunda ta'lim, fan, madaniyat, aloqa va axborotlashtirish sohalarini qamrab olishini ta'kidlab o'tdi.

Videomurojaatning to'liq matnini ushbu erdan yuklab olishingiz mumkun [...]